XALQ DEPUTATLARI SIRDARYO VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 3-oktabr VI-72-122-9-0-K/24 Sirdaryo viloyati

Sirdaryo viloyatining Jizzax va Toshkent viloyatlari bilan ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ini tasdiqlash to‘g‘risida

“O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 10-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabrda kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 299-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda tasdiqlangan 03/4.3-253-son “Yo‘l xaritasi”, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirlar mahkamasining 2024-yil 9-iyuldagi 05/1-3176-sonli xati, Kadastr agentligining Sirdaryo viloyati boshqarmasining 2024-yil 22-iyuldagi 544-sonli xati hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi

QAROR QILADI:

1. Sirdaryo viloyatining Jizzax va Toshkent viloyatlari bilan ma‘muriy-hududiy chegara chizig‘ini tasdiqlash to‘g‘risida Kadastr agentligining Sirdaryo viloyati boshqarmasi boshlig‘i Sh.Ruziqulovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Sirdaryo viloyatining Jizzax va Toshkent viloyatlari bilan ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ining tavsifi 1-ilovaga muvofiq;

Sirdaryo viloyatining Jizzax va Toshkent viloyatlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasining kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq maqullansin.

3. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Umarov)ga;

“O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 23-moddasi ijrosini ta’minlash maqsadida, ushbu qarorni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuborish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash viloyat hokimi o‘rinbosarlari A.Umarov, V.Ibadullayev, A.Mirzayevga, nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi R.Tursunmurodov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



MAXMUDALIYEV
AKMALJON
AZIMJONOVICH

Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati
Kengashining
2024-yil 3-oktabrdagi
VI-72-122-9-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Sirdaryo viloyati maʼmuriy-hududiy chegara chizigʻining yakuniy natijalari boʻyicha tavsifi

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklari chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom ijrosi yuzasidan, Sirdaryo viloyatining Qozogʻiston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi va Toshkent hamda Jizzax viloyatlari bilan chegaradosh qismidagi maʼmuriy chegarasini belgilash boʻyicha tavsifi ishlab chiqildi.

Sirdaryo viloyatining Toshkent viloyati bilan chegaralarini belgilashda boshlangʻich nuqta qilib Qozogʻiston Respublikasi va Sirdaryo, Toshkent viloyatlari chegara chizigʻining tutashgan joyi, Sirdaryo daryosiga Boʻzsuv kanalini quyilishida joylashgan nuqta boshlangʻich 1-nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatlari 40°56′34,937", sharqiy uzunlik koordinatlari 68°38′32,889").*

Toshkent viloyati yerlari bilan 1-23 nuqtalar oraligʻida chegaralar tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara chizigʻi Boʻzsuv kanalini quyilishidan Sirdaryo daryosi oʻzaniga oʻtadi va janubiy-sharqiy yoʻnalishda daryosining oʻzani boʻylab suv oqimiga qarshi 3184 metr masofani oʻtib, Toshkent-Samarqand temir yoʻli koʻprigida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°55′18,718", sharqiy uzunlik 68°40′00,344").*

2-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali Toshkent-Samarqand temir yoʻli koʻprigini kesib oʻtib, Sirdaryo daryosi oʻzaniga oʻtadi va umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda daryo oʻzani boʻylab suv oqimiga qarshi barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3723 metr masofani oʻtib, M-39 “Olmota-Termiz” avtomobil yoʻli koʻprigida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°54′10,233", sharqiy uzunlik 68°41′51,023").*

3-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali M-39 “Olmota-Termiz” avtomobil yoʻli koʻprigini kesib oʻtib, Sirdaryo daryosi oʻzaniga oʻtadi va daryo oʻzani boʻylab suv oqimiga qarshi sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 853 metr masofani oʻtib, Chirchiq daryosi quyilishida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°53′56,297", sharqiy uzunlik 68°42′22,240").*

4-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda Sirdaryo daryosining oʻzani boʻylab suv oqimiga qarshi barcha burilishlarni hisobga olgan holda 26186 metr masofani oʻtib, Ohangaron daryosi quyilishida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47′28,511", sharqiy uzunlik 68°50′23,716").*

5-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda Sirdaryo daryosining oʻzani boʻylab suv oqimiga qarshi barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5353 metr masofani oʻtib, keyin umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 4943 metr masofani oʻtib, Sirdaryo daryosi oʻzanida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43′44,670", sharqiy uzunlik 68°54′22,763").*

6-nuqtadan chegara chizigʻi janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda Sirdaryo daryosining oʻzani boʻylab suv oqimiga qarshi barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2052 metr masofani oʻtib, keyin umumiy sharqiy yoʻnalishda 2774 metr masofani oʻtib, soʻngra janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 2748 metr masofani oʻtib, avtomobil koʻprigi boʻyida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°41′20,677", sharqiy uzunlik 68°57′36,141").*

7-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali avtomobil koʻprigini kesib oʻtib, Sirdaryo daryosi oʻzaniga oʻtadi va daryo oʻzani boʻylab suv oqimiga qarshi janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 786 metr masofani oʻtib, umumiy keyin janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1606 metr masofani oʻtib, soʻng janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1059 masofani oʻtib, Sirdaryo daryosi oʻzanida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°39′57,505", sharqiy uzunlik 68°57′43,512").*

8-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy yoʻnalishda Sirdaryo daryosining oʻzani boʻylab suv oqimiga qarshi barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4154 metr masofani oʻtib, keyin umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 2920 metr masofani oʻtib, soʻng umumiy sharqiy yoʻnalishda 7005 metr masofani oʻtib, Sirdaryo daryosi oʻzanida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°38′10,073", sharqiy uzunlik 69°03′42,997").*

9-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda Sirdaryo daryosining oʻzani boʻylab suv oqimiga qarshi barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1570 metr masofani oʻtib, keyin umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda 5266 metr masofani oʻtib, soʻng gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 2731 metr masofani oʻtib, Sirdaryo daryosi oʻzanida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34′48,108", sharqiy uzunlik 69°03′35,124").*

10-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda Sirdaryo daryosining suv oqimiga qarshi barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2623 metr masofani oʻtib, Sirdaryo daryosida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°35′41,457", sharqiy uzunlik 69°02′35,440").*

11-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda Sirdaryo daryosining suv oqimiga qarshi barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2937 metr masofani oʻtib, keyin janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1278 metr masofani oʻtib, soʻng sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 5577 metr masofani oʻtib, Sirdaryo daryosi oʻzanida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°33′47,419", sharqiy uzunlik 69°04′41,751").*

12-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy janubiy yoʻnalishda Sirdaryo daryosining oʻzani boʻylab suv oqimiga qarshi barcha burilishlarni hisobga olgan holda 25630 metr masofani oʻtib, Sirdaryo daryosi oʻzanida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°24′07,654", sharqiy uzunlik 69°05′17,209").*

13-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, quruq ariqqa tutashadi va quruq ariqning chap tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1125 metr masofada dala tuproq yoʻli va Doʻstlik kanalini kesib oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°23′52,944", sharqiy uzunlik 69°04′34,715").*

14-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy janubiy yoʻnalishda Doʻstlik kanalining suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 9675 metr masofani oʻtib, keyin janubiy-sharqiy yoʻnalishda 5693 metr masofani oʻtib, kanal

boʻyida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°16′44,571", sharqiy uzunlik 69°06′54,412").*

15-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali dala tuproq yoʻlini kesib oʻtadi va ariqqa tutashadi va umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 2600 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°15′36,731", sharqiy uzunlik 69°07′37,507").*

16-nuqtadan chegara chizigʻi sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 476 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtadi va dala tuproq yoʻlining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 122 metr masofani oʻtib, keyin toʻgʻri chiziq orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 79 metr masofada Doʻstlik kanaliga tutashadi, soʻng umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda Doʻstlik kanalining suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4675 metr masofani oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°13′26,916", sharqiy uzunlik 69°09′30,770").*

17-nuqtadanchegara chizigʻi umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda Doʻstlik kanalining suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 155 metr masofani oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°13′ 22,617", sharqiy uzunlik 69°09′ 34,056").*

18-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali sharqiy yoʻnalishda 117 metr masofada Doʻstlik kanalini kesib oʻtib, “Farhod GES” unitar korxonasi devoriga oʻtadi va devor boʻylab shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 114 metr masofani oʻtib, devor burilishida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40° 13′ 26,012", sharqiy uzunlik 69°09′ 41,514").*

19-nuqtadan chegara chizigʻi “Farhod GES” unitar korxonasi devori boʻylab janubiy-sharqiy yoʻnalishda 253 metr masofani oʻtib, devor burilishida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°13′21,123", sharqiy uzunlik 69°09′50,099").*

20-nuqtadan chegara chizigʻi “Farhod GES” unitar korxonasi devoridan dala tuproq yoʻliga oʻtadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 101 metr masofada avtomobil yoʻliga oʻtadi, keyin yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 50 metr masofani oʻtib, soʻng avtomobil yoʻlini kesib oʻtib yoʻl boʻylab umumiy janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 154 metr masofani oʻtib devorga tutashadi, soʻngra devor boʻylab umumiy janubiy yoʻnalishda 116 metr masofani oʻtadi, keyin tomorqa chegarasi boʻylab janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 80 metr masofani oʻtib, devor boʻyida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40° 13′08,104", sharqiy uzunlik 69° 09′ 49,321").*

21-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 29 metr masofada Shirin shahriga olib kiruvchi yoʻlni kesib oʻtib piyodalar yoʻlakchasiga oʻtadi va yoʻlakchaning gʻarb tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 17 metr masofada ariqqa tutashadi, keyin gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 79 metr masofada qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtadi, soʻng qishloq ichki yoʻlining gʻarb tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 10 metr masofani oʻtadi, soʻngra gʻarbiy yoʻnalishda ariq, “Farhod GES” unitar korxonasi devori boʻylab 45 metr masofani oʻtib, tomorqa toʻsigʻiga tutashadi va toʻsiq boʻylab janubiy yoʻnalishda 49 metr masofani oʻtib, soʻngra toʻgʻri chiziq orqali gʻarbiy yoʻnalishda 26 metr masofani oʻtib, Doʻstlik kanali boʻyida

joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40° 13′ 06,157", sharqiy uzunlik 69° 09′ 41,778").*

22-nuqtadan chegara chizigʻi janubiy yoʻnalishda Doʻstlik kanalining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 180 metr masofada avtomobil yoʻlini va temir yoʻlni kesib oʻtib, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 974 metr masofani oʻtadi, soʻngra janubiy yoʻnalishda 119 metr masofada Doʻstlik kanalini kesib oʻtib, Tojikiston Respublikasi va Sirdaryo, Toshkent viloyatlari chegara chiziqlari kesishgan joy, kanal boʻyida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°12′40,521", sharqiy uzunlik 69°10′16,699").*

Tojikiston Respublikasi yerlari bilan 23-24-nuqtalar oralig'ida chegara tavsifi quyidagicha:

23-nuqtadan 24-nuqtagacha chegara chizigʻi davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish boʻyicha mavjud chegara chizigʻi boʻyicha olindi. *(shimoliy kenglik 40°09′33,440", sharqiy uzoqlik 68°36′09,980")*

Jizzax viloyati yerlari bilan 24-43-nuqtalar oralig'ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

24-nuqtadanchegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining sharq tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 193 metr masofada qishloq ichki yoʻliga tutashadi va yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 520 metr masofani oʻtadi keyin avtomobil yoʻlini kesib oʻtib qishloq ichki yoʻliga tutashadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2251 metr masofada dala tuproq yoʻliga oʻtadi, soʻng yoʻlning gʻarb tomoni bilan oʻz yoʻnalishini oʻzgartirmagan holda 445 metr masofada temir yoʻlni kesib oʻtib, temir yoʻl boʻyida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°11′18,952", sharqiy uzunlik 68°35′32,420").*

25-nuqtadan chegara chizigʻi temir yoʻldan dala tuproq yoʻliga tutashadi soʻng yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2107 metr masofani oʻtib, sim toʻsiqqa tutashadi va sim toʻsiq boʻylab oʻz yoʻnalishini oʻzgartirmagan holda 1018 metr masofada DM-1 kanalini kesib oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°12′56,542", sharqiy uzunlik 68°34′59,291").*

26-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining shimol tomoni bilan avval sharqiy yoʻnalishda 899 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1184 metr, soʻng sharqiy yoʻnalishda 831 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyidagi 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°13′16,808" ,sharqiy uzunlik 68°36′56,622").*

27-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan zovurga oʻtadi va zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan 2520 metr masofada avtomobil koʻprigini kesib oʻtib, koʻprik boʻyida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°14′38,183" ,sharqiy uzunlik 68°36′47,266").*

28-nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil koʻprigidan zovurga oʻtadi va zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 1877 metr masofada Jizzax Bosh zovurini kesib oʻtib, dambaga tutashadi, keyin damba boʻylab avval sharqiy yoʻnalishda 29 metr, keyin shimoliy yoʻnalishda 133 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°15′43,215" ,sharqiy uzunlik 68°36′43,894").*

29-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan avval gʻarbiy yoʻnalishda 850 metr, keyin gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 5446 metr, soʻng gʻarbiy yoʻnalishda 2519 metr, soʻngra gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2833 metr

masofani oʻtib, Janubiy Mirzachoʻl kanaliga tutashadi va kanalning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 429 metr masofada avtomobil koʻprigini kesib oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°15′38,580",sharqiy uzunlik 68°28′27,317").*

30-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan avval gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 3648 metr, keyin gʻarbiy yoʻnalishda 2881 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 40°15′57,063", sharqiy uzunlik 68°23′56,437").*

31-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan avval gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1925 metr, keyin gʻarbiy yoʻnalishda 6260 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 40°15′06,022", sharqiy uzunlik 68°18′19,151").*

32-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan avval gʻarbiy yoʻnalishda 996 metr, keyin shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1637 metr, keyin gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2950 metr, soʻng gʻarbiy yoʻnalishda 8327 metr, soʻngra gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1208 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°16′06,818", sharqiy uzunlik 68°08′06,784").*

33-nuqtadan chegara chizigʻi toʻgʻri chegara chizigʻi orqali Janubiy Mirzachoʻl kanalini kesib oʻtib, 18-Janubiy taqsimlagich kanaliga tutashadi va kanalning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 4374 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2382 metr masofani oʻtib, M39 avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°19′05,838", sharqiy uzunlik 68°05′35,933").*

34-nuqtadan chegara chizigʻi M39 avtomobil yoʻlining sharq tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 8154 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyidagi 35-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°22′22,516", sharqiy uzunlik 68°09′26,591").*

35-nuqtadan chegara chizigʻi M-39 avtomobil yoʻlining janub tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 6999 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25′10,862", sharqiy uzunlik 68°12′45,094").*

36-nuqtadan chegara chizigʻi toʻgʻri chegara chizigʻi orqali M-39 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2606 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 37-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26′10,936", sharqiy uzunlik 68°11′27,771").*

37-nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 5876 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29′19,831", sharqiy uzunlik 68°11′34,914").*

38-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan gʻarbiy shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 4727 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 39-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29′52,638", sharqiy uzunlik 68°8′18,890").*

39-nuqtadan chegara chizigʻi toʻgʻri chegara chizigʻi orqali Chap tarmoq kanalini kesib oʻtib zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 5453 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻliga tutashadi, keyin yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1829 metr masofani oʻtadi, soʻng zovurni kesib oʻtib, zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi boʻylab oʻz yoʻnalishini oʻzgartirmagan holda 1870 metr masofada zovurni kesib oʻtib, dala tuproq

yoʻli boʻyida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40° 34′ 14,957", sharqiy uzunlik 68° 10′ 50,296").*

40-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan avval janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1556 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 324 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyidagi 41-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°33′33,332", sharqiy uzunlik 68° 11′ 47,188").*

41-nuqtadan chegara chizigʻi toʻgʻri chegara chizigʻi orqali dala tuproq yoʻlini va Markaziy oʻng tarmoq kanalini kesib oʻtib, Markaziy Mirzachoʻl zovuriga tutashadi va zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 1596 metr masofani oʻtib, zovur boʻyidagi 42-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34′24,881", sharqiy uzunlik 68°11′49,673").*

42-nuqtadan chegara chizigʻi Markaziy Mirzachoʻl zovuridan toʻgʻri chegara chizigʻi orqali dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib lotokka tutashadi va lotokning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 576 metr masofada zovurga oʻtadi, keyin zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan oʻz yoʻnalishini oʻzgartirmagan holda 4021 metr masofani oʻtadi, soʻng kanalni va R-29 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 7564 metr masofani oʻtib, Qozogʻiston Respublikasi va Sirdaryo, Jizzax viloyatlari chegara chizigʻining tutashgan joy, Markaziy zovurda joylashgan 43-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°40′32,756", sharqiy uzunlik koordinatlari 68°14′53,718").*


Qozogʻiston Respublikasi yerlari bilan 43-1 nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

43-nuqtadan 1-nuqtagacha chegara chizigʻi davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish boʻyicha mavjud chegara chizigʻi boʻyicha olindi. *(shimoliy kenglik 40°56′34,937", sharqiy uzoqlik 68°38′32,889").*

Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati
Kengashining
2024-yil 3-oktabrdagi
VI-72-122-9-0-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Sirdaryo viloyati ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining

CHIZMASI



Shartli belgilar

Sirdaryo viloyatining chegarasi va yer maydoni

1 *Sirdaryo viloyati chegarasining burilish nuqtasi va raqami*